



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





BOLALAR PSIXOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA XAVFLARI

Jahonova Xolida G'anisher qizi

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning bolalar psixologiyasi nuqtai nazaridan ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etiladi. Bolalarning intellektual rivoji, emotsional holati, ijtimoiylashuv jarayoni, motivatsiyasi hamda xavfsizlik masalalari ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni, rivojlantiruvchi ta'siri, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Maqola oxirida muallif tomonidan mavzuga oid shaxsiy ilmiy-analitik fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: bolalar psixologiyasi, sun'iy intellekt, raqamli didaktika, shaxs rivoji, xavfsiz raqamli muhit, emotsional intellekt, ijtimoiylashuv.

ANNOTATION. This article analyzes the positive and negative aspects of the use of artificial intelligence technologies in modern education and upbringing from the perspective of child psychology. The intellectual development, emotional state, socialization process, motivation, and safety issues of children are considered based on a scientific approach. It also highlights the role of artificial intelligence tools in increasing educational efficiency, their developmental impact, and their potential for forming digital competencies. At the end of the article, the author presents his personal scientific and analytical thoughts on the topic.

Keywords: Child psychology, artificial intelligence, digital didactics, personality development, safe digital environment, emotional intelligence, socialization.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются положительные и отрицательные стороны использования технологий искусственного интеллекта в современном образовании и воспитании с точки зрения детской психологии. С научной точки зрения рассматриваются интеллектуальное развитие, эмоциональное состояние, процесс социализации, мотивация и вопросы безопасности детей. Также освещается роль инструментов искусственного интеллекта в повышении эффективности образования, их развивающее воздействие и потенциал для формирования цифровых компетенций. В конце статьи автор представляет собственные научные и аналитические размышления по данной теме.



Ключевые слова: детская психология, искусственный интеллект, цифровая дидактика, развитие личности, безопасная цифровая среда, эмоциональный интеллект, социализация.

Bugungi globallashuv jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi tabiiy jarayon bo'lib, ayniqsa bolalar bilan ishlashda bu tizimlarning roli yanada sezilarli darajada ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektning vositalari bolalar psixologik rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishi, ularning tafakkuri, emotsional barqarorligi, ijtimoiy aloqalari va shaxs sifatida shakllanishi uchun qanday imkoniyatlar va xavflarni yuzaga chiqarishi bugungi ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Sun'iy intellektidan foydalanish nafaqat o'quv jarayonida, balki farzand tarbiyasi, psixokorreksiya, o'yin terapiyasi, kognitiv diagnostika va kommunikatsiya jarayonlarida ham muhim metodik vositaga aylanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalar, ayniqsa maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik tizimlari hali to'liq shakllanmagan bo'lganligi sababli, ular sun'iy intellekt texnologiyalariga nisbatan ancha sezgir bo'lishadi, demak, texnologiyalar ularga qanday ta'sir qilishi ustidan chuqur ilmiy kuzatuv va ehtiyotkorlik talab etiladi.

Sun'iy intellektning afzalliklari birinchi navbatda bolaning intellektual rivojiga bog'liq bo'lib, u o'quv materiallarini individuallashtirish, bolaning o'zlashtirish darajasini aniq tahlil qilish, xatolarni real vaqt rejimida ko'rsatib berish imkoniyatiga ega. Bunday texnologiyalar o'quv jarayonida differensial yondashuvni kuchaytiradi, bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini aniqlashga va ularni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Masalan, SI asosidagi o'quv platformalari bolaning fikrlash tezligi, diqqat barqarorligi, xotira quvvati va analiz-sintez faoliyatiga moslashib, u uchun eng maqbul mashqlarni tanlay oladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va kognitiv qiziqishni kuchaytiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'yin texnologiyalari orqali bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin, chunki interaktiv o'yin scenariylari bolaning turli emotsiyalarini boshqarish, stressga bardoshlilikni oshirish va ijobiy tajribalarni mustahkamlash uchun samarali muhit yaratadi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektidan foydalanish jarayonida ayrim xavflar ham mavjud. Birinchidan, bola va texnologiya o'rtasidagi haddan tashqari muloqot real hayotdagi ijtimoiy aloqalarni kamaytirishi, ijtimoiy ko'nikmalarning sekin shakllanishiga olib kelishi mumkin. Chunki bolalar shaxs sifatida o'rnak olish, empatiya rivojlantirish, nutq va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga eng avvalo insonlar bilan bevosita aloqada bo'lish orqali ega bo'lishadi. Agar sun'iy intellekt bilan aloqa ortib borsa, bola real emotsional javoblar, empatik reaksiyalarni to'liq ololmaydi, chunki texnologiya u qadar tabiiy emotsional qayta aloqa bera olmaydi. Ikkinchidan, texnologiyaga



bog'lanib qolish xavfi mavjud bo'lib, bu bolaning o'z vaqtini boshqarish, diqqatni bo'lish, harakat aktivligi kabi psixofiziologik jarayonlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Uchinchidan, axborot xavfsizligi ham muhim masala hisoblanadi. Bola haqida to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlar noto'g'ri ishlatilsa yoki himoyasiz bo'lsa, bu psixologik xavflarni kuchaytirishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt bolalarda ijodkorlikni pasaytirishi haqidagi ilmiy taxminlar ham mavjud. Chunki ko'plab tayyor javoblar, avtomatik yechimlar va algoritmik takliflar bolaning mustaqil izlanish faoliyatini qisqartirishi ehtimoli bor. Bu holat ayniqsa ijodiy tafakkur baru bosqichda shakllanayotgan kichik maktab yoshidagi bolalarda tez-tez kuzatilishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashda balansni saqlash, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiruvchi topshiriqlarni yetarlicha berib borish zarur. Bolalar psixologiyasi nuqtai nazaridan sun'iy intellektdan foydalanishda ota-onalar va pedagoglarning roli juda muhim. Texnologiyalar bolaning rivojlanishiga yordam berishi uchun ularni tartibli va maqsadli qo'llash, vaqt me'yorini belgilash, kontentni nazorat qilish, pedagogik va psixologik kuzatuvni muntazam olib borish talab etiladi. Agar sun'iy intellekt "yordamchi" rolida ishlatilsa, bolaning ta'lim jarayonini boyitadi, motivatsiyani kuchaytiradi, o'quv faoliyatini qiziqarli va interaktiv qiladi. Ammo u "asosiy tarbiyachi"ga aylanib qolsa, ijtimoiy-emotsional rivojlanishda bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin.

Maqola davomida keltirilgan afzallik va xavflar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt bolalar psixologiyasi uchun nafaqat imkoniyat, balki mas'uliyatli yondashuvni talab qiladigan murakkab hodisa hamdir. Bu texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali bolalarda ijobiy kognitiv faollik, intellektual rivoj, ta'limga qiziqish va zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Aks holda, ularning ruhiy rivojida muayyan nomutanosibliklar yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas.

Bolalar psixologiyasida muhim tushunchalardan yana biri -shaxsiy identifikatsiya jarayonidir. Bola kimligim kim, men nimaga qodirman, qanday fikrlayman degan savollarga javobni ko'pincha atrof-muhit orqali izlaydi. Agar bola ko'proq SI bilan muloqot qilsa, u o'zini texnologiyaga solishtira boshlashi mumkin. Masalan, SI har doim to'g'ri javob beradi, xatoni darhol tuzatadi, bilimga cheksiz ega. Bola esa tabiiy ravishda xato qiladi. Natijada "men SI dan kamman, men yetarli emasman" degan ichki komplekslar shakllanish xavfi mavjud. Bu esa o'z-o'zini baholashga kuchli ta'sir qiladi. Shu sababli bolaga unvositalarining imkoniyatlari cheklanganligini, inson fikri va ijodi bundan ancha ustun ekanligini tushuntirish juda muhim.

Sun'iy intellekt bilan faol ishlaydigan bolalarda tana faoliyati ham o'zgaradi. Psixologlar bolalarda ekran vaqti ortgan sari harakat faolligi kamayishini, bu esa emotsional holatning beqarorlashishiga, uyqu muammolariga va temperamentallik o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi.

Bola qanchalik kam harakat qilsa, shunchalik kuchli emotsiyalarni chiqarib yuborish qiyinlashadi va ichki stress to'planadi. Sun'iy intellekt bilan o'yinlar ko'pincha jismoniy harakat talab qilmaydi. Shu sabab jismoniy va ruhiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun harakatli o'yinlar, sport mashg'ulotlari va real jismoniy muhitdagi o'yinlar bilan SI faoliyatini balanslash zarur.

Shuningdek, sun'iy intellekt bilan ishlash oila ichidagi kommunikatsiyaga ham ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan ota-onalar farzandning sun'iy intellekt vositalari bilan shug'ullanayotganini "bandlik" deb qabul qiladi va ular bilan muloqotni kamaytirishi mumkin. Bu esa bola uchun emotsional bo'shliq yaratadi. Bola texnologiya bilan muloqot qilsa ham, bu insoniy yaqinlikni almashtira olmaydi. Ota-onaning mehrli munosabati, suhbatlar, birgalikdagi faoliyatlar bola psixologik barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sun'iy intellekt ishlatilayotgan muhitning psixologik gigiyenasi ham alohida tahlilga muhtoj. Sun'iy intellekt tavsiya qiladigan kontentlar, qarorlar, ko'rsatmalar doimo bolaga mos bo'lmaydi. Ayrim algoritmlar nazorat qilinmasa, yoshga mos bo'lmagan axborotlarni taklif qilishi yoki bolada keraksiz qo'rquv, xavotir, hissiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatni oldini olish uchun sun'iy intellekt platformalaridagi filtrlar, ota-ona nazorati, yoshga mos sozlamalar, pedagogik moslik mezonlari qat'iy qo'llanishi shart.

Raqamli psixologiya sohasidagi eng yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt bolaning metakognitiv ko'nikmalarini kuchaytirishi mumkin. Metakognitiv rivoj - bu bola o'z fikr jarayonini tushunishi, xatolarini anglay olishi, o'z o'rganish jarayonini boshqara olishi demakdir. Sun'iy intellekt bu jarayonni yengillashtiradi, chunki bola darhol tahliliy izohlar oladi. Biroq shu bilan birga, SI ortiqcha yo'l-yo'riq berib yuborsa, bola o'z fikriy mustaqilligini yo'qotishi ham mumkin. Shu sabab SI o'quv jarayonida "ko'rsatma beruvchi emas, yo'naltiruvchi" bo'lishi kerak.

Mening fikrimcha, sun'iy intellekt bolalar psixologik rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, bu ta'sirning ijobiy yoki salbiy bo'lishi bevosita kattalar tomonidan yaratilgan pedagogik muhitga bog'liq. Agar sun'iy intellekt bolaga o'qituvchi, ota-ona yoki psixologning qo'l ostida qo'shimcha vosita sifatida xizmat qilsa, u kelajak avlodning raqamli savodxon, mustaqil fikrlovchi, tez moslashuvchan va intellektual jihatdan kuchli bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. Ammo texnologiyaning o'zi tarbiyachi yoki doimiy hamrohga aylansa, bola emotsional jihatdan bo'shashishi, ijtimoiylashuv jarayoni sekinlashishi va texnologiyaga bog'liqlik kuchayishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellektidan foydalanishda eng muhim mezon — balans, nazorat va psixologik ehtiyotkorlikdir. Bolaning haqiqiy hayot bilan



muloqoti va texnologiya o'rtasida sog'lom nisbat bo'lishi esa uni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, D. Raqamli maktab va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiy fikrlashini mediakompetentlik asosida rivojlantirish yo'llari // Problems and solutions of scientific and innovative research volume 01, issue 07, 2024. - B.177-181.G'aniyeva G.
3. G'anieva, N. Raqamli avlod psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
4. Jo'rayev, A. Sun'iy intellekt asoslari. – Toshkent: IT Park nashriyoti, 2020.
5. G'aniyeva G.I. Ijtimoiy fikrlash uning tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirish imkoniyatlari // Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent, 2024. - №21. – B.196-198. (13.00.00 OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/5-son qarori).
6. G'aniyeva G.I. III-sinf o'quvchilarida ijtimoiy fikrlashni fanlararo mediata'lim vositalari asosida shakllantirishning holati // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2023. - №5. – B.214-217 (13.00.00. №18).
7. Xoliyorova, S. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida raqamli vositalarning ta'siri. – Toshkent: Fan, 2021.
8. Karimova, R. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarning o'rni. – Buxoro: Buxoro DU nashriyoti, 2022.
9. Rizaev, O. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi qo'llanilishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
10. Usmonxo'jayev, Q. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi. – Toshkent: Nodir kitoblar, 2023.
11. Xudoyberdiyev, A. Sun'iy intellekt va jamiyat: psixologik yondashuv. – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2022.
12. Ochilova, Z. Raqamli ta'lim resurslari va ularning o'quvchi psixologiyasiga ta'siri. – Qarshi: QDU nashriyoti, 2021.